

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 1/S. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/1 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

<i>Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJIGA EGA BO'LGAN INSONLARNI IJTIMOIIY HIMOYALASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR	9-16
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i> ФАРФОНА ВОДИЙСИ МИНГ ЎЗБЕК УРУҒИ МАНБАЛАРИ ТАРИХИДАН	17-22
<i>Rajarov Mardonbek Qosimboy o'g'li</i> AFRIG'IYALAR SULOLASI TARIXINING TURK TILLI TADQIQOTLARDA YORITILISHI	23-26
<i>Исмоилова Нигорахон Усмонжановна</i> НАЛИВКИН И ЕГО СВЕДЕНИЯ О ТУЗЕМНОЙ ЖЕНЩИНЕ	27-34
<i>Мирхакимова Феруза Холдоржон кизи</i> ВЗГЛЯД В ИСТОРИЮ МЕМОРИАЛЬНОГО МУЗЕЯ САДРИДДИН АЙНИ	35-40

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Zhao Rong</i> RESEARCH ON THE CONSTRUCTION OF CORE CURRICULUM STANDARDS FOR CROSS- BORDER E-COMMERCE MAJORS BASED ON HIGHER VOCATIONAL EDUCATION IN INNER MONGOLIA	41-48
<i>Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o'g'li</i> FARG'ONA VILOYATIDA AGROTURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RESURS SALONIYATINI VAHOLASH	49-58
<i>Malikova Gulhayo Turdali qizi</i> TIJORAT BANKLARDA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI	59-64
<i>Maxmudov Anvarjon</i> SOLIQ HUQUQBUZARLIKLARINI TARKIBI, SHAKLLANISH MANBALARI VA ULARNI IQTISODIY MONIYATI	65-75
<i>Мухитдинов Ахрор</i> РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА ЯГОНА МАРКАЗЛАШГАН ДИСПЕТЧЕРЛИК ХИЗМАТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ	76-82
<i>Jurayev Xusan Atamuratovich</i> KORXONANI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	83-89
<i>Butunov Shaymardan Berdiyrovich</i> NOANIQLIK ORQALI HARAKAT QILISH: IQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA MOLIYAVIY TAHLIL	90-96
<i>Islomova Mohlaroyim Inomjon qizi, Ortiqova So'g'diyona Abdusodiq qizi, Abdurahimova Zulhumor Azimjon qizi</i> TURIZM XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI TEXNANOLOGIYALARNI QO'LLASH	97-103
<i>Содиқов Анвар</i> ЎЗБЕКИСТОН ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИ ИСТИҚБОЛЛАРИНИ КЎП ОМИЛЛИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАР АСОСИДА БАҲОЛАШ ВА МУҚОБИЛ СЦЕНАРИЙЛАРИНИ АНИҚЛАШ...	104-116

Norov Asror Egamberdiyevich, Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich
O‘ZBEKISTONDA DOKTORANTURA FAOLIYATI YO‘LGA QO‘YILGAN OLIY TA‘LIM VA ILMIY
TADQIQOT MUASSASALARI 117-122

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Эшонкулова Нуржахон Абдужабборовна
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТЛАРИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ:
ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛ 123-130

Khalilova Shakhlo Abdurashitovna
IBN SINA AND HIS CONTRIBUTION TO SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION: RETHINKING
THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS 131-136

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Saidov Hakim G‘ofurovich
VATANPARVARLIK VA MILLIY G‘URURNING FALSAFIY KATEGORIAL NEGIZLARI 137-141

Jabborov Jamshid Azimovich
MA‘NAVIY EHTIYOJLAR JAMIYAT MA‘NAVIY HAYOTINING TARKIBIY QISMI
SIFATIDA 142-148

Coatov Fayram
БАЙРАМЛАР – МИЛЛАТНИНГ ОЛИЙ ҚАДРИЯТИ 149-156

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna
NAQSHBANDIYLAR EHTIROMIGA SAZOVOR BUYUK ZOT 157-161

Wang XiaoYu
AN ANALYSIS OF THE MYTHICAL PATTERNS IN ULYSSES FROM THE PERSPECTIVE OF
ARCHETYPE THEORY 162-170

Mamadkulova Kamila Abdukhalikovna
FEATURES OF 19th CENTURY LITERATURE: ROMANTICISM AND REALISM 171-175

Aripova Saodat Taxirovna
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI 176-181

Xudoyqulov Behzod Abbosovich
ITALYAN TILIDAGI FRAZEOLGIK IBORALAR TARJIMASI VA ULARNING O‘ZBEK TILIDAGI
EKVIVALENTLARI 182-187

Mavlonova Gulnora Abdig‘ani qizi
ADABIYOTDA QO‘LLANILGAN EVFEMIZMLAR (ROMAN VA SHE‘RIYAT) MISOLLAR
BILAN 188-192

Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Izzatilloeva Sevinch Nusratilloevna
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “YAXSHILIK” KONSEPTINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING
MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI 193-197

Djurayeva Orzigul Gafurovna
QAXXOR BAXSHI RAHIMOV IJODINING O‘RGANILISHI 198-204

Gafarova Shahnoza Hayrullayevna
TIL VA TA‘LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR 205-209

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР*Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ
ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ОМИЛЛАРИ ВА ЗАРУРИЯТИ 210-215*Sarvinov Sunnatillaeva*PROCEDURAL CHALLENGES IN THE REGULATION OF ABUSE OF DOMINANT POSITION IN
UZBEKISTAN 216-222**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***Soliev Ibodulloxon Ismatullayevich*FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF REFORMS IN THE MANAGEMENT SYSTEM OF
HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 223-233*Shokirov Po'lat*TALABALARGA ATLETIK GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHING
USLUBIY ASOSLARI 234-238*Begmatova Dilnoza Muxtarovna*JAHON MIQYOSDA TA'LIM JARAYONI SUBYEKTLARIDA MADANIY IMMUNITETNI
SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI 239-243*To'rayev Panji To'xtayevich*MILLIY KURASH MASHG'ULOTLARIDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIKNI TASHKIL
ETISH VA SHAKLLANTIRISH 244-248*Axmedova Nafisa Isaxodjayevna, Azamatov Abdullo Isaxo'ja o'g'li, Lutfullina Rumiya Anvarovna*
OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAKULTETLARI TALABALARI
UCHUN ANTIDOPING QOIDABUZARLIKLARINING OLDINI OLISH MEXANIZMINI

YARATISH 249-256

*Egamberdiyev Javlonbek*TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH VA UNING
ILMIY-USLUBIY ASOSLARI 257-260*Kenjaboev Abdisalim Erkaboevich*ZAMONAVIY TA'LIM- TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK RAHBARNING
KOMPETENTLIGI 261-265

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ

Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li
Yangi asr universiteti "Umumta'lim fanlari"
kafedراسi o'qituvchisi

**O'ZBEKISTONDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJIGA EGA BO'LGAN INSONLARNI IJTIMOYIY
HIMOYALASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR**

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan insonlarga bo'lgan munosabat, yaratilgan va kelgusida yaratilishi rejalashtirilayotgan sharoitlar haqida so'z boradi. Bundan tashqari maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoyalash sohasida amalga oshiralayotgan islohotlar haqida ham faktlarga asoslangan ma'lumotlar joy olgan.

Kalit so'zlar: Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan, ijtimoiy himoya, islohot, monomarkaz huquq+ bot, ishplus, konstitutsiya, qonun.

Fayziyev Urinbay Toshmuhammad ugli
Yangi asr "General Education"
department teacher

**REFORMS IN THE FIELD OF SOCIAL PROTECTION OF PEOPLE WITH SPECIAL
EDUCATIONAL NEEDS IN UZBEKISTAN**

Abstract. This article talks about the attitude to people with special educational needs in Uzbekistan, the conditions created and planned to be created in the future. In addition, the article contains factual information about the reforms being implemented in the field of social protection of persons with disabilities.

Keywords: Individuals with special educational needs, social protection, reform, monocentric law + bot work plus, constitution, law.

Файзиев Уринбай Тошмухаммад угли
Университет Янги аср, преподаватель кафедры
«Междисциплинарных предметов»

**РЕФОРМЫ В ОБЛАСТИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЛЮДЕЙ С ОСОБЫМИ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Аннотация. В данной статье рассказывается об отношении к людям с особыми образовательными потребностями в Узбекистане, условиях, созданных и планируемых к созданию в будущем. Кроме того, в статье содержится фактическая информация о реформах, реализуемых в сфере социальной защиты лиц с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: Лица с особыми образовательными потребностями, социальная защита, реформа, моноцентрический закон + бот работа плюс, конституция, закон.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N01>

Kirish. Hozirgi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida va jamiyatning har qanday ijtimoiy guruhlarida nogironlar nogironlar deb ataladigan shaxslar mavjud. Dunyoda ularning soni sezilarli va o'sishda davom etmoqda. Bu esa ularni avvalo jamiyatda o'z o'rnini topishlari, boshqalarga muhtoj bo'lmasliklari uchun sog'lom muhitga moslashtirish va ular bilan teng huquqlilik asosida ta'lim berish talablarini qo'yadi. Xalqaro huquqiy me'yoriy hujjatlarda shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham "har kim bilim olish huquqiga ega" deb belgilab qo'yilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda mustaqillikka erishilganidan so'ng alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan aholi qatlamlariga bo'lgan munosabatini aniqlashdan iborat. Buning uchun tadqiqot metodologiyasini tashkil etuvchi bir qator usullar qo'llanildi. Tadqiqot quyidagi nazariy usullardan foydalangan holda amalga oshirildi: tizimli tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish va tizimlashtirish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan insonlarni ijtimoiy himoyalash sohasidagi islohotlar mavzusida quyidagi olimlar so'z yuritgan.

Xoliqulova X. Y. o'zining O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati nomli dissertatsiyasida quyidagi masalalarga to'xtalgan: Insoniyat ijtimoiy siyosiy ma'naviy va ma'rifiy hayotida imkoniyati cheklanganlarga bo'lgan munosabat, Imkoniyati cheklangan bolalarning ixtisoslashtirilgan maktab internatlardagi ta'limi va inklyuziv ta'limning rivojlanish asoslari va boshqa muhim masalaga to'xtalgan.

Usmonov M. A. o'zining O'zbekistonda keksalar va nogironlarning ijtimoiy himoyalashning tashkiliy huquqiy muammolari nomli dissertatsiyasida keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqiy himoyalash maqsadida qabul qilingan qonun hujjatlari prezidentlari haqida so'z yuritgan.

Muhokama. Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan davlat siyosatining asoslarini, 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunda batafsil yoritib berilgan. Bu qonun nogironlarning ijtimoiy-huquqiy holatini belgilab beruvchi huquqiy asos hisoblanadi. Bu qonunga 2010 va 2013-yilda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Ushbu qonunda nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bilan teng imkoniyatlar yaratish, ularning hayotiy faoliyatidagi cheklovlarni bartaraf etish, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va to'laqonli hayot kechirish jamiyat hayotida faol ishtirok etish, imkonini beradigan qulay shart-sharoitlar yaratishni belgilab beradi. Shuningdek, bu qonunda nogironligi bo'lgan shaxslar ham fuqarolik burchlarini bajarish lozimligi ta'kidlangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, jamiyatda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyasini ta'minlash davlat siyosatining bosh yo'nalishi bo'lib qoldi. Binobarin, mamlakatda o'tkazilgan barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirish edi. Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, jahon tan olgan besh tamoyilning muhim qismi aholini kuchli ijtimoiy himoyalash ekanligi ham shu bilan bog'liqdir. O'zbekiston hukumati ana shu besh tamoyil asosida o'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur choralar ko'rdi. Bu choralar odamlarning turmush darajasini keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi hamda respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlash omili bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki

davridan boshlab aholining kam ta'minlangan qismini qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilgan chora-tadbirlar, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Birinchi Prezident I.Karimov, — aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari — pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar, shuningdek, qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilarni himoya qilish davlatning muqaddas burchidir, degan qoidaga asoslanib ish tutdik". degan edi. Nafaqaxo'rlarning ijtimoiy ahvolini e'tiborga olib, eng kam pensiyaning mutlaq miqdori ish haqining eng kam miqdoridan oshiqroq bo'lishi muttasil ta'minlanib kelindi. Bu yo'l ijtimoiy adolat tamoyillariga to'la mos kelar edi. Masalan, 1998-yil 1-iyuldan ish haqining eng oz miqdori 1100 so'm bo'lgani holda, qarilik pensiyasining eng kam miqdori 2100 so'mni tashkil etdi, nogironlik pensiyasi esa bundan ham ortiq bo'lgan. O'zbekistonda nogironlar shaxslarni qonun doirasida ijtimoiy himoya kafolatlangan. Masalan: O'zbekiston Respublikasining 80 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlarida nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotida ishtirok etishi, o'z manfaatlarini himoya qilish huquqlari mustahkamlab qo'yilgan. Fuqarolik, iqtisodiy, siyosiy va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni amalga oshirishda ularga boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlar yaratilgan. Nogironlarning huquqlari bir qator qonunlarda, xususan: "Ta'lim to'g'risida", "Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish to'g'risida", "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida", "Bandlik to'g'risida"gi Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida", "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi singari qonunlarda ularning huquq va erkinliklari kafolatlangan. Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan davlat siyosatining asoslarini, 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunda batafsil yoritib berilgan. Bu qonun nogironlarning ijtimoiy-huquqiy holatini belgilab beruvchi huquqiy asos hisoblanadi. Bu qonunga 2010 va 2013-yilda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Ushbu qonunda nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bilan teng imkoniyatlar yaratish, ularning hayotiy faoliyatidagi cheklovlarni bartaraf etish, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va to'laqonli hayot kechirish jamiyat hayotida faol ishtirok etish, imkonini beradigan qulay shart-sharoitlar yaratishni belgilab beradi. Shuningdek, bu qonunda nogironligi bo'lgan shaxslar ham fuqarolik burchlarini bajarish lozimligi ta'kidlangan. Mazkur qonundan ko'rinib turibdiki, nogironlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy huquq va erkinliklariga to'liq ega bo'lib, davlat tomonidan nogironlarni kamsitmaslik prinsipi o'rnatilgan.: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi 319-son qarori asosida ; O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun quyidagi qo'shimcha imtiyozlar nazarda tutilgan:

I va II guruh nogironlariga, oylik pul nafaqasini to'lash,
statsionar tibbiyot muassasalarida bo'lganida oziq-ovqat uchun haq to'lashdan ozod qilish Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 2 dekabrda 532-son qarori asosida;
tibbiy xulosaga muvofiq protez-ortopediya buyumlari, nogironlar aravachalari, "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun, 26-moddaga ko'ra;

tayanch vositalari va boshqa texnik vositalar bilan bepul ta'minlash eng kam ish haqining uch baravari miqdorida daromad solig'i va jismoniy shaxslarni yer solig'idan to'lashdan ozod qilish (Soliq kodeksi, 380-modda);

yo'lovchi transport vositalaridan foydalanayotgan nogironlarga har oyda benzin uchun kompensatsiya to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 27 maydagi 258-son qarori;

I guruhdagi ko'zi ojizlar uchun) uchun uy-joy kommunal xizmatlarini to'lashga har oyda pul kompensatsiyasi beriladi Prezidentning 2003 yil 27 martdagi PF-3227-son qarori asosida ;

shahar yo'lovchi transportida (taksidan tashqari) I guruhdagi ko'rish nogironlari hamrohlik qiluvchi shaxs bilan birga bepul yurish ("Shahar yo'lovchi transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi Qonun, 1-modda);

(I va II guruh nogironlari) shahar atrofi yo'lovchi transportida (taksidan tashqari) va yo'lovchi tashish poyezdida hamrohlik qiluvchi shaxs bilan birgalikda ma'muriy hudud doirasida bepul sayohat qilish (Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 27 maydagi № 258 sonli qarori)

Nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlash ham mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlashda hukumat tomonidan ishlab chiqiladigan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan tasdiqlanadigan har yili ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. 2015-yilgi dastur 987,5 mingta ish o'rinlarini yaratishga yordam berdi shundan 203,7 mingtasini ayollar, yolg'iz va katta yoshli fuqarolar, odam savdosi qurbonlari nogironlar egalladi. Bunday ko'plab ish o'rinlarini yaratishda kasanachilikning barcha shakllari, tadbirkorlik faoliyati, hunarmandchilik va boshqa sohalarni rivojlantirish yotadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarga Ishga marhamat Monomarkazlarda kasbga o'rgatish va bandlik xizmatlari ko'rsatilmoqda. Ish plus telegram kanali orqali ham har xil turdagi nogironligi bo'lgan shaxslar o'zlariga munosib ish o'rinlari bilan ta'minlanmoqdalar. Bundan tashqari telegram ijtimoiy tarmog'ida huquq+ bot ham ishga tushirildi bu botni ishga tushirishdan maqsad nogironligi bo'lgan shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatishdir. Bundan ko'rinib turibdiki davlatimiz nogironligi bo'lgan shaxslarga ham ma'naviy ham huquqiy jihatdan yordam ko'rsatib kelmoqda. Huquqiy sohadagi ishlar bilan birgalikda Ijtimoiy sohada ham nogironlarga yordam ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-avgustdagi qabul qilgan qaroriga ko'ra "Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan keksalar va nogironlarga ijtimoiy xizmatlar quyidagi shakllarda taqdim etiladi:

yashash joyidagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlari va maslahat xizmatlari;

uyda parvarishlash xizmatlari;

kunlik yoki qisqa muddatli muassasalarda xizmatlar;

turar-joy muassasalarida xizmatlar.

Nogironlarni yashash joyidagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlari hamda maslahat xizmatlari tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan ko'rsatiladi va quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish masalalari bo'yicha maslahatlar berish, tegishli tashkilotlarga yuborish;

sog'lig'iga ko'ra muhtoj bo'lgan keksalar va nogironlarga ularga homiylik o'rnatishda va homiylarning o'z vazifalarini bajarishini nazorat qilishda yordam berish.

protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiyaning texnik vositalarini olishda ko'maklashish;

alohida e'tiborga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironlarga bepul yoki imtiyozli dori vositalari bilan ta'minlashda yordam ko'rsatish;

alohida parvarishga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironlarga asosiy oziq-ovqat va gigiyena vositalari bilan bepul ta'minlashda yordam ko'rsatish.

Davlatimiz yolg'iz keksalarga manzilli yordam ko'rsatmoqda Ijtimoiy xizmatlar markazlari yolg'iz yashovchi keksalar va nogironlarga uy sharoitida xizmat ko'rsatiladi va bu xizmatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: maishiy xizmatlar, jumladan, oziq-ovqat, zarur sanoat tovarlari va dori-darmonlarni sotib olish va uyga yetkazib berish, ovqat pishirish va tozalashda yordam berish, gigiyena xizmatlari va boshqalar.

Keksalar va nogironlar uchun shifoxona yoki sihatgohlarda (nogironlarni rehabilitatsiya qilish markazlari, yolg'iz keksalar, nafaqaxo'rlar va nogironlar uchun aloqa va dam olish markazlarida,) ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi. Bundan tashqari bu markazlarda o'z-o'zini parvarish qilish ko'nikmalarini o'rgatish, mustaqil harakat va yo'nalish, rehabilitatsiyaning texnik vositalaridan foydalanish;

keksalar va nogironlarning ijtimoiy integratsiyalashuvi chora-tadbirlari qonun hujjatlariga muvofiq pullik va bepul asosda sanatoriy-kurortda davolanish xizmatlari ham mavjud.

Qariyalar va nogironlar uchun turar-joy muassasalarida ijtimoiy xizmatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

doimiy parvarishlash, shaxsiy xizmatlar ko'rsatish, qulay uy-joyni mebel, jihozlar, ko'rpa-to'shaklar bilan ta'minlash, kiyim-kechak va poyabzal, boshqa zarur buyumlar bilan ta'minlash, yoshi va sog'lig'ining holatini hisobga olgan holda ratsional va parhez ovqatlanishni tashkil etish;

birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish, zarurat tug'ilganda ixtisoslashtirilgan shifoxonalarda davolanish, tibbiy ko'rsatkichlar bo'yicha protez-ortopediya buyumlari, rehabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlash;

maxsus psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish; qiziqishlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida kitobxonlik klubi va to'garak ishlarini tashkil etish;

nogironlarni maxsus maktab-internatlarni tark etishi va mustaqil yashashi yoki oilasi bilan yashashi uchun sharoit yaratish.

2016-yildagi amalga oshirilgan islohotlar natijasida Nogironligi bo'lgan shaxslarga aloqador barcha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va boshqa manfaatdor shaxslar huzuridagi vazirliklar va idoralar tomonidan Davlat xizmatlarining yagona reestriga, kiritiladi. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar nogironlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar shakllari, turlari, shartlari, muddatlari, hajmlari hamda ularni ko'rsatish sifatini nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida aholini xabardor qilishlari shart deb belgilab qo'yilgan. Ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam oluvchi nogironlar to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini

ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi tomonidan boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasining Yagona reyestriga kiritiladi. Ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam oladigan keksalar va nogironlar Ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam koʻrsatilayotgan keksalar va nogironlar toʻgʻrisidagi ochiq maʼlumotlar vazirlik va idoralarning rasmiy veb-saytlarida, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joylashtirilgan. Yuqoridagi islohotlar bilan birga Nogironligi boʻlgan shaxslarni jamiyatga moslashuvini taʼminlash maqsadida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi tashkil etilgan. Markazning vazifalari quyidagilardan iborat:

bolalar ijtimoiy moslashuvi muammolarini oʻrganish, koʻrsatib oʻtilgan muammolarni hal etish yuzasidan maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek bolalar oʻrtasida jismoniy imkoniyatlari cheklangan, ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlar paydo boʻlishiga olib keladigan omillarning salbiy taʼsirini kamaytirish;

bolalarning alohida nochor guruhlarini qoʻllab-quvvatlash va ijtimoiy moslashtirish sohasida Vatan tajribasini, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini chuqur oʻrganish va umumlashtirish, bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalalari bilan shugʻullanuvchi davlat muassasalari va nodavlat muassasalarning amaliy faoliyatida ulardan foydalanish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini oʻrganish, zamonaviy talablarni va standartlarni hisobga olgan holda tizimning samaradorligini oshirishga doir kompleks dasturlar ishlab chiqish;

bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalalari boʻyicha oʻquv-metodik va maʼlumotnoma qoʻllanmalarining holati va sifatini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

bolalarning maqsadli guruhlariga tegishli davlat dasturlari va jamoat loyihalari bajarilishi monitoringini olib borish, ularni amalga oshirish samaradorligini kuchaytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ishlar masalalarida ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari bilan oʻzaro aloqani amalga oshirish, ijtimoiy ishlar boʻyicha taʼlim standartlarini takomillashtirish, bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimida “ijtimoiy xodim” maqomini mustahkamlash;

bolalarga ruhiy-pedagogik, taʼlim va reabilitatsiya dasturlarini amalga oshirish yoʻli bilan amaliy yordam koʻrsatish;

bolalar huquqlarini himoya qilish, bolalar psixologiyasi va yoshga oid psixologiya, pedagogika, tibbiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini, bolalarning zaif guruhlarini qoʻllab-quvvatlash va ijtimoiy moslashtirish sohasidagi xalqaro tajribani keng jamoatchilikka yetkazish yoʻli bilan bolalarni ijtimoiy moslashtirish masalalarida maʼrifiy va targʻibot faoliyati, bolalarning ijtimoiy moslashtirish masalalarini hal etishga barcha manfaatdor tomonlarni jalb etish.

Respublika ijtimoiy moslashuv markazining nogiron bolalarga ijtimoiy xizmat koʻrsatuvchi xodimlari, tomonidan bolalar huquqlarini himoya qilish mavzusida respublikamiz va xorijdagi yetakchi jurnallarda ikki yuzdan ortiq ilmiy maqolalar chop etishgan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman, forum, simpoziumlarda maʼruzalar bilan qatnashmoqda. Ommaviy axborot vositalarida, “Axborot”, “Davr”, “Poytaxt” kabi axborot-

tahliliy ko'rsatuvlarda, "O'zbekiston", "Yoshlar", "Oriyat-dono" radiokanallarida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari muammolari tizimli yoritib borilmoqda. Ular keng jamoatchilik va mutaxassislarni bolalar va oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasidagi yutuqlar va yangiliklar haqida ma'lumot berishga qaratilgan. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

1) 553 ta seminar-treninglar, ulardan: Respublika viloyatlaridan 6531 nafar mutaxassislarni (o'quv, ixtisoslashtirilgan, ta'lim muassasalarining psixologlari, pedagoglari va o'qituvchilari, KDN mas'ul kotiblari, prokuratura va ichki ishlar organlari xodimlari, advokatlar, o'zini o'zi boshqarish organlari) qamrab olgan 348 ta o'quv seminarlari; o'tkazilgan. Bu seminar treninglar ilg'or mahalliy va xorijiy tajribani hisobga olgan holda, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalari bilan ishlashga, zamonaviy yondashuvlarni mutaxassislarning amaliy faoliyatiga joriy etishga qaratilgan. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi mutaxassislari uchun 42 ta ma'ruzalar o'tkazildi (475 nafar) tinglovchi ishtirok etdi.

2) Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun 25 ta sport tadbirlari tashkil etildi., Chinoz, Samarqand, Qo'qon, Nukus, Andijon, Termiz, Qarshi, Yangiyo'l shaharlarida 4874 kishi ishtirok etdi.

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni birlashtirish maqsadida nogironlar jamiyatlari tashkil etilgan. Bu jamiyatlar nogironlarga har tomonlama yordam berish maqsadida tashkil etilgan. Bunday jamiyatlarga misol tariqasida O'zbekiston Karlar jamiyatini misol keltirish mumkin O'zbekiston karlar jamiyati bo'limlarining statistik ma'lumotlariga ko'ra eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslarning umumiy soni eshitish qobiliyatini butunlay yo'qotgan va zaif eshituvchilar soni va tarkibi bo'yicha: eshitish qobiliyatini butunlay yo'qotgan – 18303 nafar, eshitish qobiliyati zaif – 3875 nafar hisoblanadi. Qishloq joylarda 11976 nafar aholi istiqomat qiladi. Yoshi bo'yicha: 7 yoshgacha — 674 kishi, 7 yoshdan 16 yoshgacha — 3960 kishi, 16 yoshdan 50 yoshgacha va undan kattalar — 5081 kishi. Jins bo'yicha: erkaklar – 12427 kishi yoki jami eshitishda nuqsoni bo'lgan aholiga foiz hisobida 56,03%, ayollar – 9751 kishi.

Nogironligi bo'yicha: 1-2-guruh nogironlari – 8966 nafar, 3-guruh nogironlari – 4415 nafar. Har bir viloyatda Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar mavjud. Shuningdek, Xalq ta'limi vazirligining ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari – maktabgacha yoshdagi kar va zaif eshituvchi bolalar uchun bog'chalar va ixtisoslashtirilgan guruhlar mavjud.

Ixtisoslashtirilgan bog'cha va maxsus guruhlarda eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan 430 nafar bola tarbiyalanmoqda. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda 4260 nafar o'quvchi tahsil oladi. Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlarda eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan 377 nafar fuqaro tahsil olmoqda. Eshitish va nutqida nogironligi bo'lgan 6566 nafar mehnatkash aholidan 248 nafari Karlar jamiyatida, 2439 nafari boshqa korxonalarda, 3879 nafari qishloq xo'jaligida band. 6292 kar va soqov ishsizlar bor. Pensiya oluvchi karlar soni 15292 nafar: nogironligi bo'yicha – 11039 nafar, yoshi bo'yicha – 4253 nafar.

O'zbekiston Karlar jamiyati kar-ko'zi ojizlar uchun surdo-tarjimonlar muammolarga duch kelmoqda. Respublikada "surdo-tarjimon" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash va ta'lim davlat tizimi hali shakllanish bosqichida.

2007-2008-yillarda Yaponiyaning “JIGA” agentligi bilan xalqaro hamkorlik doirasida 200 nafarga yaqin respublika fuqarolari imo-ishora tili bo'yicha o'quv kurslarini tamomlab, surdo-tarjimon sertifikatlariga ega bo'ldilar.

O'zbekistonda nogironlarni qo'llab quvvatlashning yana bir vositasi NNT lar tashkil qilish hisoblanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari nogironligi bo'lgan shaxslarga doir ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshiradi. Bugungi kunda ularning soni 580 dan ortiq ixtisoslashgan NNTga yetdi. Respublikaning barcha hududlarida tuzilmaviy bo'linmalariga ega bo'lgan eng yirik NNTlarga quyidagilar kiradi: O'zbekiston nogironlar jamiyati, O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati va O'zbekiston karlar jamiyati. Ushbu tashkilotlarning a'zolari 100 dan ortiq yuridik va jismoniy shaxslardir.

Natijalar. 2012-yilda O'zbekiston NNTlar milliy assotsiatsiyasi huzurida tashkil etilgan Maslahat kengashi nogironlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida faoliyat yurituvchi 26 dan ortiq NNT vakillarini birlashtirgan maslahatchi davlat organi hisoblanadi. Maslahat kengashi tomonidan 2014-yilda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va BMTTD ko'magida BMTning Nogironlar huquqlari bo'yicha konvensiyasi va ratifikatsiya qilish va amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi loyihasi ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. Nodavlat notijorat tashkilotlari Nogironligi bo'lgan shaxslarga oid qonun hujjatlarini ishlab chiqish va monitoring qilishda faol ishtirok etmoqda. 2013-yilda ular ishtirokida “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”, “Ekologik nazorat to'g'risida”, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi qonunlar ishlab chiqildi. Nogironlarning nodavlat notijorat tashkilotlari nogironlarning siyosiy huquqlarini ro'yobga chiqarish va nogironlar manfaatlarini hisobga oluvchi qarorlar qabul qilish maqsadida siyosiy partiyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Xulosa. O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan insonlarga munosabat yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy huquqiy himoyalash davlat siyosating ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanmoqda. Ularni ish bilan ta'minlash borasida manzilli faoliyat olib borilmoqda. Ularning muammolari joyida hal qilish chorasini ko'rishmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi T.: „O'zbekiston“ 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-avgustdagi qabul qilgan qarori
3. Xoliqulova X. Y. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni ximoya qilish siyosati diss Toshkent.: 2018.
4. Usmonov M. A. O'zbekistonda keksalar va nogironlarning ijtimoiy himoyalashning tashkiliy huquqiy muammolari diss Toshkent.: 1995.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/1 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).